

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 790 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

SHAXS RIVOJLANISHIDA OILANING ROLI

Yuldasheva Sojida Zoyirovna

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
“Psixologiya” kafedrasida assistenti*

**Usmanova Shaxnoza Zakirovna, Ahmetova Shaxnoza Bozorbekovna,
Sherbekova Diana Sunnatillo qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Amaliy psixologiya” yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs rivojlanishida oilaning tutgan o‘rni, uning ijtimoiy-psixologik ahamiyati hamda tarbiyaviy funksiyalari tahlil qilinadi. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti sifatida uning qadriyatlarini, xulq-atvori, emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi yoritiladi. Shuningdek, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning sifat darajasi, oiladagi psixologik muhit, tarbiya uslublari hamda ularning shaxs kamolotiga ta’siri ilmiy-nazariy asosda ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy oilaviy muammolar va ularning shaxs rivojlanishiga salbiy ta’siri hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida xulosalar berilgan

Kalit so‘zlar: Oila, shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv, tarbiya, oilaviy munosabatlar, psixologik muhit, ota-ona, farzand, qadriyatlar, shaxs kamoloti, emotsional rivojlanish, ijtimoiy omillar

“Shaxsiyati rivojlangan inson dunyoni o‘zgartira oladi”

Lev Tolstoy

Shaxs — bu jamiyatda yashab, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadigan, ongli faoliyat yurituvchi individdir. S.L.Rubinshteyn shaxsga quyidagicha ta’rif bergan: “Shaxs — ong va faoliyat birligida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy mavjudot”. A.N.Leontev ta’rifi bo‘yicha: Shaxs — bu faoliyat va ijtimoiy munosabatlar mahsuli.

Inson shaxsining shakllanishi — bu biologik, psixologik va sotsial omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda kechadigan murakkab rivojlanish jarayonidir. Shaxs rivojlanishi faqat individual-genetik imkoniyatlarga tayanmaydi, balki ularning amaliy shakllanishi atrof-muhit, ijtimoiy tajriba va tarbiyaviy ta’sirlar bilan bevosita bog‘liq. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar odatda uch asosiy guruhga ajratiladi. Bular:

1. Biologik (irsiy) omillar:

- *irsiyat (genetik xususiyatlar)*
- *nerv tizimi tipi (kuchli–zaif, muvozanatli–nomuvozanatli)*
- *temperament (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik)*
- *jins va yoshga oid xususiyatlar*
- *jismoniy rivojlanish darajasi*

Bu omillar inson tugʻilishi bilan bogʻliq boʻlib, shaxs rivojlanishining biologik poydevorini tashkil etadi. Biologik omillar shaxsning imkoniyatlarini belgilaydi, ammo uni toʻliq shakllantirib bermaydi.

2. Ijtimoiy muhit omillari:

- *oila (tarbiya uslubi, ota-onaning munosabati)*
- *taʼlim muassasalari (bogʻcha, maktab, OTM)*
- *tengdoshlar guruhi*
- *madaniyat, urf-odat va anʼanalar*
- *ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar*

Shaxs aynan jamiyatda, odamlar bilan munosabat jarayonida shakllanadi. Shu sababli bu omil yetakchi hisoblanadi. Ijtimoiy muhit shaxsning qadriyatlarini, eʼtiqodini, xulqi va ijtimoiy rollarini shakllantiradi.

3. Faoliyat va taʼlim-tarbiya omillari:

- *oʻyin (bolalik davrida)*
- *oʻqish va taʼlim*
- *mehnat faoliyati*
- *muloqot*
- *oʻz-oʻzini tarbiyalash*

Shaxs faoliyat jarayonida va ongli tarbiya orqali rivojlanadi. Faoliyat shaxsning bilim, koʻnikma, malaka va irodaviy sifatlarini rivojlantiradi.

Shaxs rivojlanishi – irsiyat, ijtimoiy muhit, taʼlim-tarbiya va faoliyatning oʻzaro taʼsiri natijasidir. Ularning birortasi alohida holda shaxsni toʻliq shakllantira olmaydi va bunda oila asosiy oʻrinda turadi.

Oila ijtimoiylashuvning eng muhim instituti boʻlib, unda shaxs dastlabki qadriyatlar, ijtimoiy meʼyorlar, muloqot koʻnikmalari va oʻzini anglash asoslarini egallaydi. Oiladagi emotsional muhit, tarbiya uslubi va munosabatlar sifati shaxsning xarakteri, oʻziga bahosi hamda jamiyatga moslashuv darajasini bevosita shakllantiradi. Shaxsning psixologik barqarorligi, oʻzini anglash darajasi, ijtimoiy meʼyor va qadriyatlarni oʻzlashtirish jarayoni, avvalo, oiladagi muloqot sifati, emotsional iqlim, ota-onalarning tarbiyaviy uslublari va ularning shaxsiy namunasi orqali shakllanadi. Zamonaviy ijtimoiy va psixologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oilaning tuzilishi, uning ichki ijtimoiy rollari va munosabatlar tizimi shaxs shakllanishining koʻrsatkichlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, bolalik davridagi oila tajribasi hayot davomida ijtimoiy moslashuv darajasini, oʻz-oʻzini anglashni va emotsional muvozanatni belgilovchi asosiy faktor boʻlib qoladi. **Oila muhiti** —bu bola psixikasining dastlabki tayanch tizimi boʻlib, bu tizimning barqarorligi yoki buzilishi shaxs rivojlanishining sifatiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Shuningdek, zamonaviy oilaviy tizimlarning ijtimoiy oʻzgarishlari, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, globalizatsiya, mehnat migratsiyasi va maʼnaviy qadriyatlar transformatsiyasi natijasida ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi anʼanaviy emotsional bogʻliqlik zaiflashmoqda. Bu holat esa shaxs shakllanishida xavf omillarining koʻpayishiga olib kelmoqda, xususan, sotsial izolyatsiya, hissiy sovuqlik, kommunikativ qiyinchiliklar va moslashuvdagi buzilishlar koʻp kuzatilmoqda. Oʻzbekiston sharoitida oila qadimdan maʼnaviy va

axloqiy qadriyatlar asosi sifatida ko‘riladi. Shu bois, zamonaviy oilaning shaxs shakllanishidagi roli nafaqat psixologik, balki ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotining kafolati sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Shaxs rivojlanishida oilaning roli - bu faqatgina biologik nasl davomchiligi bilan cheklanmaydigan, balki ijtimoiylashuv, emotsional va sotsial o‘zaro ta‘sirning markaziy o‘chog‘i sifatida namoyon bo‘ladigan murakkab tizimdir. Psixologik yondashuvlarning klassiklaridan biri bo‘lmish L.S.Vigotskiy o‘zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxs shakllanishi ijtimoiy kontekstda amalga oshirishini va bu jarayonning markazida bola va kattalar o‘rtasidagi muloqot, ijtimoiy interaksiya, ya‘ni, aynan oila turishini ta‘kidlaydi. Vygotsky fikriga ko‘ra, bola o‘ziga xos psixik rivojlanish yo‘nalishini atrof-muhitdagi shart-sharoit va oilaviy ijtimoiy tajriba orqali shakllantiradi. U.Bronfenbrenner esa inson taraqqiyotini ekopsixologik model orqali izohlagan holda oilani shaxs rivojlanishining eng yaqin va hal qiluvchi mikro-muhit elementi sifatida ko‘rsatadi. Uningcha, bola rivojlanishida oilaviy tizimda mavjud bo‘lgan muloqot sifati, emotsional bog‘liqlik va ota-onaning shaxsiy modeli, bola xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlariga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Tarbiya uslublari bo‘yicha yetakchi tadqiqotchi D.Baumrind esa o‘z asarlarida oilaviy tarbiyaning avtoritar, demokratik va befarq uslublari bolalar shaxsiyati rivojlanishida turlicha natija berishini ilmiy isbotlagan. Baumrind tajribalari ko‘rsatganidek, demokratik tarzda ijobiy emotsional qo‘llab-quvvatlov va qat‘iy, lekin mehribon nazorat uyg‘unlashgan oilalarda o‘sgan bolalar yuqori darajada mustaqillik, ijtimoiy moslashuvchanlik va psixologik barqarorlik namoyish etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham oilaning shaxs shakllanishidagi ahamiyati barqaror tendensiya sifatida qayd etilmoqda. Masalan, UNICEF (2022) hisobotida qayd etilishicha, bolalik davridagi oilaviy iqlim sifati inson hayotining keyingi bosqichlarida ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va kasbiy muvaffaqiyat bilan bevosita bog‘liq. Sotsiologik kuzatuvlarga ko‘ra, mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi oilalarda o‘sgan shaxslar stressga chidamli, o‘zini qadrlash darajasi yuqori va konstruktiv ijtimoiy xatti-harakat ko‘rsatishga moyil bo‘lishadi.

O‘zbekistonda olib borilgan psixologik izlanishlarda esa oila va tarbiyaning inson shaxsini shakllantirishdagi roli qadimiy madaniy qadriyatlar va jamiyat mentalitetiga mos kontekstda tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Oila va bolalar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida oilaning shaxs kamolotidagi axloqiy va huquqiy maqomi davlat siyosati darajasida e‘tirof etilgani, oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlash hamda shaxs tarbiyasini davlat strategiyasiga mos ravishda rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Oila ichidagi munosabatlar, shu jumladan ota-onaning bolaga nisbatan tutgan pozitsiyalari, o‘rnak bo‘lishi va bolaga qo‘yilgan talablar shaxsiyatning shakllanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oila va shaxsiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda ko‘plab ilmiy manbalar, tajribalar va nazariyalar yordamida chuqur tahlil qilish kerak. Masalan, E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalik davridagi ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va oilaviy o‘rnak shaxsiyatning ijtimoiy moslashuvchanligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Biroq

oilaviy muhitning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari o'z navbatida bolalarning dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori darajadagi iqtisodiy sharoitga ega bo'lgan oilalar bolalariga kengroq imkoniyatlar yaratib berishi mumkin, bu esa qo'shimcha ijobiy omil bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, oiladagi psixologik muammolar, oila ichidagi nizolar, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'rnak olish jarayonidagi inkor qilish, tartibsizlik va his-tuyg'ulardagi nomutanosibliklar shaxsiyatni shakllantirishda jiddiy salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin.

Z.Freudning psixoanalitik nazariyasida shaxs rivojlanishini ongsiz jarayonlar, biologik instinktlar va ayniqsa bolalik davridagi tajribalar bilan izohlaydi. Unga ko'ra, insonning hozirgi xulqi ko'pincha bolalikdagi yechilmagan ichki ziddiyatlar natijasidir. Oila esa bu jarayonda asosiy muhit bo'lib, bolaning ilk psixik tajribalari aynan oilada shakllanadi.

L.Vygotskiyga ko'ra, shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Bola kattalar va tengdoshlar bilan muloqot orqali rivojlanadi. Oila bu jarayonda asosiy ijtimoiy muhit bo'lib, bilim va ko'nikmalarni uzatishda muhim vositachidir.

A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra inson xulqi kuzatish va taqlid orqali shakllanishini asoslaydi. Bola ota-onaning xatti-harakatlarini model sifatida qabul qiladi. Shu sababli, oiladagi har bir harakat bolaga bevosita namuna bo'lib xizmat qiladi.

A.Maslouning gumanistik nazariyasida u inson ehtiyojlari iyerarxiyasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, inson avvalo asosiy ehtiyojlarini (xavfsizlik, mehr, hurmat) qondirgach, o'zini ro'yobga chiqarishga intiladi. Oila bu ehtiyojlarni qondiruvchi birlamchi muhit hisoblanadi.

Yuqoridagi nazariyalar shuni ko'rsatadiki, shaxs rivojlanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, unda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro uyg'unlashadi. Biroq barcha nazariyalarda umumiy jihat shuki — oila shaxs shakllanishining eng muhim asosiy muhitidir. Aynan oilada bola ilk tajribalarni oladi, qadriyatlarni o'zlashtiradi va o'z "Men"ini anglay boshlaydi. Shuning uchun sog'lom psixologik muhitga ega oila barkamol shaxs tarbiyasining asosiy omili hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, inson shaxsining shakllanishidagi oila roli, nafaqat bolalarning ichki dunyosining rivojlanishini belgilovchi asosiy omil, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va rivojlanishiga olib keluvchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi. Shaxsning ma'naviy sifatlariga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila asosiy rol ni bajaradi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga va uni tashkil etuvchilarga nisbatan hurmat

tuygʻusini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga, turli koʻrinishdagi munosabatlarda tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy meʼyorlarga ogʻishmay rioya etish, sogʻlom turmush tarzini yaratish, oʻz shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad va faoliyat birligini taʼminlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat naʼmunasini koʻrsatishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va Oʻrta Maxsus Taʼlim vazirligi Gʻ.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sogʻinov “Oila psixologiyasi” “Sharq nashriyoti” Toshkent – 2015
2. X.U.Abdusamatov Bolada ota obrazi shakllanishida turli ijtimoiy-psixologik omillarni oʻrni. Uslubiy qoʻllanma – T. “Fan” nashriyoti. 2021 y 52 b.
3. G.Qarshiboyeva, U.Ibaydullayeva Oila psixologiyasi. Toshkent “Bayoz” 2022 B.137
- a. “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” S.Yuldasheva. Toshkent. “Zebo print” nashriyoti 2025yil
4. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY //Social science and innovation. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 128-133.
5. Kamolov D. Athenian democracy: individual and collective freedom //Semantic Scholar. – 2021.
6. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
7. Kamolov D. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. – 2023.
8. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 02.
9. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. NUU Conference 2. – C. 348-352.
10. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 4-9.
11. Абдуназаров С. А., Цой М. П. Реформирование системы образования Республики Узбекистан //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2016. – №. 10-6. – С. 14-17.
12. Цой М., Зулфакарова Л., Наджмиддинов Д. РОЛЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 85-89.
13. Цой М., Камолов Д. ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Academic literature. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-105.